

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TABIATNI ASRASH G'OYALARINI SHAKLLANTIRISH

Mo'minova Sevinch Akbar qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

pedagogika fakulteti maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatni asrash g'oyalarini shakllantirishning mazmuni, ahamiyati va samarali usullari yoritilgan. Maqolada bolalarning ekologik tarbiyasini erta yoshdan boshlab yo'lga qo'yish, ularni atrof-muhitga nisbatan mehr-muhabbat va mas'uliyat ruhida tarbiyalash zarurligi asoslab beriladi. Tabiatni asrash bo'yicha o'yinlar, tajribalar, kuzatishlar, suhbatlar va amaliy mashg'ulotlarning o'rni hamda ularning bolalar tafakkuri va hissiyotiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagog va otalarning hamkorligi, bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda namunaviy xulqning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim jarayonida ekologik tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ekologik tarbiya, tabiatni asrash, bolalar rivoji, tarbiyaviy ishlar, ekologik madaniyat.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ ОХРАНЫ ПРИРОДЫ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: В данной статье раскрывается содержание, значение и эффективные методы формирования у детей дошкольного возраста идей по охране природы. Обоснована необходимость экологического воспитания с раннего возраста, воспитания у детей любви и ответственного отношения к окружающей среде. Рассмотрены роль игр, наблюдений, экспериментов, бесед и практических занятий в развитии экологического мышления и чувств

дошкольников. Также отмечено значение сотрудничества педагога и родителей, а также личного примера взрослых в процессе формирования экологической культуры у детей. Результаты исследования включают методические рекомендации, направленные на повышение эффективности экологического воспитания в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, экологическое образование, охрана природы, развитие ребенка, воспитательная работа, экологическая культура.

FORMING NATURE CONSERVATION IDEAS IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract: This article explores the content, significance, and effective methods of forming ideas about environmental protection among preschool-aged children. It substantiates the need for early ecological education aimed at fostering love and a sense of responsibility toward nature and the environment. The article discusses the role of games, observations, experiments, conversations, and practical activities in developing children's ecological thinking and emotional awareness. It also highlights the importance of cooperation between teachers and parents, as well as the role of adult role models in shaping children's ecological culture. The research results include methodological recommendations designed to enhance the effectiveness of environmental education within the preschool system.

Keywords: preschool education, environmental education, nature conservation, child development, educational work, ecological culture.

Bugungi kunda ekologik muammolar insoniyat oldida eng dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi, iqlim o'zgarishlari inson faoliyatining bevosita oqibati bo'lib, bu holat jamiyatning barcha qatlamlarida ekologik ongni shakllantirish zaruratini kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim

tizimida tabiatni asrash g'oyalarini bolalarga singdirish, ularni ekologik madaniyatli shaxs sifatida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yosh — shaxs shakllanishining eng muhim bosqichidir. Aynan shu davrda bola tabiatni his etish, uni kuzatish, unga mehr bilan munosabatda bo'lishni o'rganadi. Shu sababli ekologik tarbiya jarayonini erta yoshdan boshlash, bolalarda tabiatni asrash g'oyalarini ongli ravishda shakllantirish maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy pedagogik vazifalaridan biridir.

Tabiat — bolani ma'naviy boyitishning bitmas-tuganmas manbaidir. Bolalar doimo u yoki bu shaklda tabiat bilan aloqada bo'ladilar. Ularni yamyashil o'tloqlar, anvoyi gullar, kapalaklar, qo'ng'izlar, qushlar, hayvonlar, suzib yurgan bulutlar, pag'a-pag'a yog'ayotgan qor uchqunlari, jilg'a va ko'lmaklar o'ziga jalb qiladi. O'simlik hamda hayvonotlarning xilma-xil olami bolalarda tabiatga nisbatan jonli qiziqish va havas uyg'otadi, ularni faoliyatga undaydi. Tabiat bilan muloqotda bo'lish bolalarda atrof-olam haqida realistik bilim, jonli mavjudotga insoniy munosabatda bo'lishni shakllantirishga yordam beradi.

Bolalar odatda juda qiziquvchan, tabiat hodisalari va narsalariga katta e'tibor bilan qaraydigan bo'ladilar. Bu esa ota-onalar va o'qituvchilar uchun bolani atrof-muhit to'g'risida yanada ko'proq bilim olishlari uchun munosib shart-sharoit yaratib berishni taqozo etadi. Ota-onalar va o'qituvchilar oldida turgan bunday vazifalar jumlasiga bolalarda atrof-muhit jonli va jonsiz narsalarga bo'lgan muhabbat va hurmat tuyg'usini rivojlantirish, ularning tabiat haqidagi o'z tasavvurlarini boyitish, bolaga nafaqat bilim berish balki o'z hissiyotlarini erkin ifoda etish imkoniyatini berish juda muhimdir. Shu boisdan ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish ularni o'zlarini va atrofida sodir bo'layotgan barcha narsani to'g'ri tushunishga o'rgatadi. Bolalarning o'zlari mehr va muhabbatga muhtoj. Shu bilan birga, ular barcha jonzotlarga befarq va beqiyos darajada o'zlarining mehrlarini berishga qodirdir. Qani endi ulardagi bu mehr-oqibatni saqlab qolishni imkoni bo'lsa. Buning uchun avvalo bolalarni tabiatda ham, odamlar orasida ham o'zini to'g'ri tutishga o'rgatish lozim. Bolaning

mehribon, sabr-toqatli, tinch va osoyishta bo'lib o'sishi va baxtli bo'lishi uchun biz kattalar bolalik inson hayotining muhim qismi ekanligini esdan chiqarmasligimiz kerak.

Xulosa. Umuman, maktab o'quvchilarining ekologik ta'lim-tarbiyasi quyidagi tuzilish va tizimda olib borilsa, uning samaradorligi ta'minlanadi: ekologik his-tuyg'u, ekologik idrok, ekologik tasavvur, ekologik tushuncha, ekologik bilim, ma'lumot, ko'nikma, malaka, odat, ekologik madaniyat (mahorat) va hokazo. Tabiatni muhofaza qilish hozirgi zamonning asosiy masalalaridan biri bo'lib qolganligi o'quvchi ongiga singdiriladi. Haqiqatdan ham, tabiiy boyliklardan haddan tashqari ko'p darajada foydalanish, yangi yerlarni rejasiz o'zlashtirish oqibatida, ekologik muvozanat keskin o'zgardi, atrof-muhit ifloslandi. Ekologik tarbiyada insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatlari tarbiyalanib, o'quvchilar ongiga yoshligidan singdirib boriladi. Ekologik ta'lim-tarbiya maktabda barcha fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodda atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli qarori <https://lex.uz/docs/5179335>
2. Kalmuratov T.N. Issues of Improving the Management of Family Non-Governmental Preschool Education Organizations. International Journal of Social Science Research and Review, <http://ijssrr.com> editor@ijssrr.com Volume 4, Issue 4 November, 2021 Pages: 135- 139.5 bet
3. Karimova, R., & Abduvaliyeva, N. (2021). *Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat haqidagi tasavvurlarni shakllantirish metodikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
4. Jo'raeva, S. (2020). *Bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi nashriyoti.

5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi (2022). *Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari*. Toshkent.

